



## TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI



### TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.


Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2023 - yil 1 - oktabr holatiga Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 97 057 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 85 507 taga yetdi.

## Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar *fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1 - oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Faoliyat ko‘rsatayotgan


Ro‘yxatdan o‘tgan




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023 - yil yanvar - sentabr oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023 - yil yanvar – sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022 - yilning mos davri bilan solishtirilganda 1090 taga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.



## Hududlar kesimida

Mirzo Ulug‘bek tumani	1 665	14,4 %	Yakkasaroy tumani	1 124	13,4 %
Yunusobod tumani	1 515	12,9 %	Shayxontohur tumani	1 051	11,5 %
Chilonzor tumani	1 500	12,7 %	Uchtepa tumani	840	10,7 %
Yashnobod tumani	1 202	14,3 %	Sergeli tumani	785	14,6 %
Olmazor tumani	1 182	12,8 %	Yangihayot tumani	556	21,5 %
Mirobod tumani	1 167	13,8 %	Bektemir tumani	320	12,3 %

2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


2023 - yil 1 - oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 97 057 tani tashkil etib, bunda sohalar bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar savdo – 31 032 tani, sanoat – 11 665 tani, qurilish – 7 177 tani tashkil etadi.

## Hududlar kesimida


Chilonzor tumani	11 769	Yashnobod tumani	8 427
Yunusobod tumani	11 723	Yakkasaroy tumani	8 418
Mirzo Ulug'bek tumani	11 554	Uchtepa tumani	7 846
Olmazor tumani	9 222	Sergeli tumani	5 371
Shayxontohur tumani	9 104	Bektemir tumani	2 603
Mirobod tumani	8 430	Yangihayot tumani	2 590

2023 - yil yanvar - sentabr oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023 - yil yanvar - sentabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 12 490 tani tashkil qilmoqda.



Hududlar kesimida

Mirzo Ulug'bek tumani	1 600	15,6 %	Yakkasaroy tumani	1 085	14,1 %
Yunusobod tumani	1 455	14,0 %	Shayxontohur tumani	1 025	12,8 %
Chilonzor tumani	1 453	13,8 %	Uchtepa tumani	815	11,3 %
Yashnobod tumani	1 168	15,4 %	Sergeli tumani	764	15,3 %
Olmazor tumani	1 147	13,7 %	Yangihayot tumani	537	22,8 %
Mirobod tumani	1 128	15,2 %	Bektemir tumani	313	12,8 %

2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023 - yil 1- oktabr holatiga 87,2 mingtani tashkil etmoqda. Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarning asosiy qismi: savdo – 35,6 foiz, sanoat – 13,3 foiz, qurilish – 8,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,2 foizni tashkil qilmoqda.

### Hududlar kesimida


Chilonzor tumani	10 509	Yashnobod tumani	7 606
Yunusobod tumani	10 404	Mirobod tumani	7 411
Mirzo Ulug'bek tumani	10 230	Uchtepa tumani	7 214
Olmazor tumani	8 393	Sergeli tumani	4 993
Shayxontohur tumani	7 982	Bektemir tumani	2 437
Yakkasaroy tumani	7 688	Yangihayot tumani	2 360

2023 - yil yanvar - sentabr oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2023 - yil yanvar - sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022 - yilning mos davriga nisbatan 1 087 taga ko'paydi.



## Hududlar kesimida

Mirzo Ulug'bek tumani	1 585	15,8 %	Yakkasaroy tumani	1 074	14,3 %
Yunusobod tumani	1 437	14,1 %	Shayxontohur tumani	1 013	13,0 %
Chilonzor tumani	1 437	13,9 %	Uchtepa tumani	808	11,3 %
Yashnobod tumani	1 160	15,6 %	Sergeli tumani	760	15,5 %
Olmazor tumani	1 142	13,8 %	Yangihayot tumani	534	23,0 %
Mirobod tumani	1 118	15,5 %	Bektemir tumani	308	12,8 %

2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Tumanlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Chilonzor tumani (12,0 foiz), Yunusobod tumani (11,9 foiz), Mirzo Ulug'bek tumani (11,7 foiz), Olmazor tumani (9,7 foiz) va Shayxontohur tumani (9,1 foiz) da faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida

Chilonzor tumani	10 304	Yashnobod tumani	7 434
Yunusobod tumani	10 180	Mirobod tumani	7 210
Mirzo Ulug'bek tumani	10 013	Uchtepa tumani	7 161
Olmazor tumani	8 272	Sergeli tumani	4 894
Shayxontohur tumani	7 786	Bektemir tumani	2 401
Yakkasaroy tumani	7 533	Yangihayot tumani	2 319




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko‘ra, birlikda

### Tumanlar kesimida

Mirzo Ulug‘bek tumani	91
Shayxontohur tumani	89
Yunusobod tumani	78
Yashnobod tumani	60
Olmazor tumani	54
Yakkasaroy tumani	50
Sergeli tumani	47
Chilonzor tumani	47
Mirobod tumani	41
Bektemir tumani	36
Uchtepa tumani	33
Yangiayot tumani	21




O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.

2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda


**Tumanlar kesimida**

Olmazor tumani	1 410
Chilonzor tumani	1 364
Uchtepa tumani	1 263
Yunusobod tumani	1 132
Yashnobod tumani	1 068
Mirzo Ulug'bek r tumani	1 051
Shayxontohur tumani	957
Yakkasaroy tumani	908
Segeli tumani	814
Mirobod tumani	669
Yangihayot tumani	526
Bektemir tumani	503



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 12,0 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,1 foizini ishlab chiqarish, 3,3 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,5 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish va 1,0 foizini elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.



2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda

## Tumanlar kesimida

Mirzo Ulug'bek tumani	964
Chilonzor tumani	857
Yunusobod tumani	854
Yashnobod tumani	777
Yakkasaroy tumani	723
Mirobod tumani	658
Shayxontohur tumani	531
Olmazor tumani	522
Sergeli tumani	435
Uchtepa tumani	422
Yangihayot tumani	257
Bektemir tumani	177



O'zbekistonda keng ko'lamlı bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda, zero bugungi bunyodkorlik — ertangi farovonlik demakdir. Shu sababli qurilish sanoati mamlakat iqtisodiyotining ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 48,9 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,7 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 41,4 foiz ulushni tashkil etdi.

698



Fuqarolik  
obyektlarini qurish

2 970

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

3 509

Bino va  
inshootlar qurish



2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda

## Tumanlar kesimida

Chilonzor tumani	3 907
Olmazor tumani	3 461
Yunusobod tumani	3 262
Uchtepa tumani	3 256
Mirzo-Ulug'bek tumani	3 149
Shayxontohur tumani	2 826
Yashnobod tumani	2 790
Yakkasaroy tumani	2 309
Mirobod tumani	2 202
Sergeli tumani	1 997
Bektemir tumani	1 041
Yangihayot tumani	832



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 98,7 foizi yoki 30,6 mingtasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 42,3 foiz ulushni tashkil etadi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 49,9 foiz ulushni tashkil etadi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 7,8 foiz ulushni tashkil etadi.

2 411

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

15 481

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


13 140

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda

## Tumanlar kesimida

Yunusobod tumani	707
Yakkasaroy tumani	634
Chilonzor tumani	629
Mirzo Ulug'bek tumani	595
Mirobod tumani	541
Olmazor tumani	492
Shayxontohur tumani	488
Yashnobod tumani	473
Uchtepa tumani	380
Sergeli tumani	256
Bektemir tumani	127
Yangihayot tumani	87



2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2022 - yilning mos davriga nisbatan 73,7 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 14,3 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 85,7 foiz ulushini tashkil etdi.

774

Yashash bo'yicha xizmatlar



4 635


Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda

## Tumanlar kesimida


Mirzo Ulug'bek tumani	838
Yunusobod tumani	682
Mirobod tumani	564
Chilonzor tumani	534
Yakkasaroy tumani	489
Shayxontohur tumani	460
Yashnobod tumani	361
Olmazor tumani	314
Uchtepa tumani	207
Sergeli tumani	139
Yangihayot tumani	58
Bektemir tumani	47



2023 - yil 1- oktabr holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 25,5 foizini tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 11,3 foizini tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 63,2 foizini tashkil etadi.



2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda

**Tumanlar kesimida**

Yunusobod tumani	336
Mirzo Ulug'bek tumani	289
Chilonzor tumani	254
Olmazor tumani	237
Shayxontohur tumani	192
Yashnobod tumani	182
Uchtepa tumani	169
Mirobod tumani	126
Yakkasaroy tumani	117
Sergeli tumani	95
Yangihayot tumani	62
Bektemir tumani	28



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 2 087 ta yoki 88,5 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki:

- 96,5 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri keladi;
- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 1,6 foizni tashkil etdi;
- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,8 foizini tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

38



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

34




Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2 015

2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda

**Tumanlar kesimida**

Chilonzor tumani	487
Yunusobod tumani	455
Mirobod tumani	454
Mirzo Ulug'bek tumani	440
Yakkasaroy tumani	421
Yashnobod tumani	386
Olmazor tumani	337
Shayxontohur tumani	313
Sergeli tumani	260
Uchtepa tumani	249
Bektemir tumani	125
Yangihayot tumani	95



2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami Toshkent shahridagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 4,1 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

— quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning jami tashish va saqlash xizmatlari sohasidagi ulushi 46,2 foizni tashkil etdi;

— ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati yo'nalishining jami tashish va saqlash xizmatlari sohasidagi ulushi 43,6 foizni tashkil etdi;

— pochta va kuryerlik faoliyati yo'nalishidagi korxonalar va tashkilotlarning ulushi esa jami tashish va saqlash xizmatlari sohasidagi ulushi 8,9 foizni tashkil etdi;

— havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni jami tashish va saqlash xizmatlari sohasidagi ulushi 1,2 foizni tashkil etdi.






### Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko‘ra, birlikda

**Tadbirkorlik subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023 - yil yanvar - sentabr oylarida, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


## Hududlar kesimida

Mirzo Ulug'bek tumani	1 516	16,7 %	Yakkasaroy tumani	1 040	14,9 %
Yunusobod tumani	1 383	15,2 %	Shayxontohur tumani	949	14,1 %
Chilonzor tumani	1 351	15,0 %	Uchtepa tumani	739	13,0 %
Yashnobod tumani	1 101	16,6 %	Sergeli tumani	703	16,2 %
Mirobod tumani	1 075	16,2 %	Yangihayot tumani	486	24,2 %
Olmazor tumani	1 062	15,3 %	Bektemir tumani	287	14,3 %


2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 85,2 mingta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 75,1 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

## Hududlar kesimida



Yunusobod tumani	9 109	Mirobod tumani	6 655
Mirzo Ulug'bek tumani	9 091	Yashnobod tumani	6 636
Chilonzor tumani	9 028	Uchtepa tumani	5 705
Yakkasaroy tumani	6 969	Sergeli tumani	4 327
Olmazor tumani	6 936	Yangihayot tumani	2 011
Shayxontohur tumani	6 710	Bektemir tumani	2 004

2023 - yil yanvar - sentabr oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Xususiy korxonalar** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.


## Hududlar kesimida

Chilonzor tumani	77	6,9 %	Sergeli tumani	28	6,1 %
Mirzo Ulug'bek tumani	64	8,1 %	Yashnobod tumani	28	4,5 %
Olmazor tumani	49	4,8 %	Mirobod tumani	27	5,5 %
Shayxontohur tumani	47	5,7 %	Yakkasaroy tumani	27	5,3 %
Uchtepa tumani	42	3,8 %	Yangihayot tumani	21	10,9 %
Yunusobod tumani	40	4,8 %	Bektemir tumani	8	2,6 %

2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 8,2 mingtani tashkil qiladi.

## Hududlar kesimida


Chilonzor tumani	1 121	Yashnobod tumani	624
Uchtepa tumani	1 104	Yakkasaroy tumani	507
Olmazor tumani	1 023	Mirobod tumani	491
Yunusobod tumani	831	Sergeli tumani	456
Shayxontohur tumani	826	Bektemir tumani	302
Mirzo Ulug'bek tumani	789	Yangihayot tumani	192

2023 - yil yanvar - sentabr oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

**Oilaviy korxonalar** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


## Hududlar kesimida

Yashnobod tumani	36	13,0 %	Shayxontohur tumani	28	8,1 %
Olmazor tumani	35	9,5 %	Mirobod tumani	26	17,3 %
Uchtepa tumani	34	9,1 %	Chilonzor tumani	23	9,1 %
Sergeli tumani	31	16,6 %	Mirzo Ulug'bek tumani	19	8,4 %
Yunusobod tumani	30	8,6 %	Bektemir tumani	18	16,2 %
Yangihayot tumani	30	20,0 %	Yakkasaroy tumani	16	10,1 %

2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra 2022 - yilning mos davriga nisbatan 802 taga kamaygan.

## Hududlar kesimida


Uchtepa tumani	374	Mirzo Ulug'bek tumani	225
Olmazor tumani	370	Sergeli tumani	187
Yunusobod tumani	349	Yakkasaroy tumani	158
Shayxontohur tumani	346	Yangihayot tumani	150
Yashnobod tumani	277	Mirobod tumani	150
Chilonzor tumani	252	Bektemir tumani	111

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot


2023 - yil yanvar - sentabr oylarida, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

### Hududlar kesimida


Mirobod tumani	<b>205</b>	<b>14,0 %</b>	Shayxontohur tumani	<b>67</b>	<b>11,9 %</b>
Mirzo Ulug‘bek tumani	<b>195</b>	<b>16,7 %</b>	Sergeli tumani	<b>59</b>	<b>16,9 %</b>
Yakkasaroy tumani	<b>149</b>	<b>12,2 %</b>	Olmazor tumani	<b>53</b>	<b>12,8 %</b>
Yunusobod tumani	<b>122</b>	<b>12,7 %</b>	Yangihayot tumani	<b>32</b>	<b>20,9 %</b>
Yashnobod tumani	<b>99</b>	<b>13,5 %</b>	Bektemir tumani	<b>29</b>	<b>14,9 %</b>
Chilonzor tumani	<b>96</b>	<b>12,9 %</b>	Uchtepa tumani	<b>22</b>	<b>9,4 %</b>




2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish




Boshqa turlar

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2,0 barabarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 1 992 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 24,3 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkiya (ulushi 12,9 foiz), Xitoy (ulushi 11,2 foiz), Qozog'iston (ulushi 8,9 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 5,4 foiz) davlatlari ham yetakchilardan hisoblanadi.


## Hududlar kesimida

Mirobod tumani	1 460	Shayxontohur tumani	561
Yakkasaroy tumani	1 217	Olmazor tumani	413
Mirzo Ulug'bek tumani	1 169	Segeli tumani	350
Yunusobod tumani	959	Uchtepa tumani	235
Chilonzor tumani	747	Bektemir tumani	195
Yashnobod tumani	732	Yangihayot tumani	153

*2023 - yil yanvar - sentabr oylarida, birlikda***Rossiya  
Federatsiyasi****357****Xitoy Xalq  
Respublikasi****201****Armaniston  
Respublikasi****4****Buyuk  
Britaniya****14****Qozog'iston  
Respublikasi****89****Turkiya  
Respublikasi****98**

Toshkent shahrining o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 2 641 tasi qo'shma korxonalar, 5 550 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda

## xorijiy korxonalar

## qo'shma korxonalar

1 072	Mirobod	388
881	Yakkasaroy	336
802	Mirzo Ulug'bek	367
649	Yunusobod	310
499	Chilonzor	248
475	Yashnobod	257
354	Shayxontohur	207
235	Sergeli	115
229	Olmazor	184
150	Uchtepa	85
110	Bektemir	85
94	Yangihayot	59

2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 - yil 24 - avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275 - son qarorining 1 - ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## **Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri**

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) va Toshkent shahar statistika boshqarmasining [www.toshstat.uz](http://www.toshstat.uz) rasmiy saytidan (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkin.



Statistik registrlarni yuritish  
bo'limi  
Tel.:71 203 88 31